

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17221416>

BANK XIZMATLARI TIZIMIDA INNOVASION YONDASHUVLAR VA ULARNING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA’SIRI

Usmonova Shirin Shuxratovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali tayanch doktoranti

e-mail: xisobot@bk.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy sharoitda innovation bank tizimini rivojlantirish, ayniqsa, maqsadli va samarali kredit xizmatlarini takomillashtirishning ahamiyati yoritib berilgan. Tijorat banklari o‘rtasidagi raqobat xizmatlar sifatini oshirishga turtki bo‘layotgani ta’kidlangan. Shu bilan birga, inovasion bank xizmatlarning samaradorligi va fuqarolarning bandligini ta’minlashda bu sohaning innovation rivojlanishi muhim omil sifatida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: bank tizimi, innovation rivojlanish, kredit xizmatlari, raqobat, moliyaviy xizmatlar.

Kirish

Taraqqiyotning zamonaviy sharoitlarida yo‘nalishli va samarali kredit xizmatlari rivoji ko‘p jihatdan jamiyat hayot faoliyatini modernizatsiyalashga bog‘liq. Shu bilan bir vaqtda sug‘urta tashkilotlari va banklarning sifati uchun kurash, ehtimol, aynan shu sababdan qisqarishi mumkin. Jumladan, so‘nggi yillardagi xorij amaliyoti o‘z mijozlariga turli – tuman sifatli xizmatlarni ko‘rsatuvchi banklar, odatda, xizmat turlari cheklangan banklaroldida ustunlikka ega ekanligini ko‘rsatib qo‘ymoqda. Bozorning qattiq shartlari va raqobat banklarni nafaqat yashab qolish, balki yashab qolish va gurkirashni istaganlar uchun ham kurashga majbur qilmoqda.

Hozirgi vaqtda g‘arb sug‘urta kompaniyalari va banklarining ko‘pchiligi mijozlarga kompleks xizmat ko‘rsatish yo‘lini tanlashmoqda. Bu shuni anglatayaptiki, ular sug‘urta, hisob-kitob, kredit va kassa xizmatidan tashqari mijozlariga har bir mijozning muayyan istaklarini qondirishga yo‘naltirilgan xizmatlarni ham ko‘rsatishadi. Iqtisodchilar tomonidan AQShning zamonaviy tijorat banki 100 dan ziyod, Angliyaning kliring banki taxminan 150 xil, Yaponiyaning asosiy tijorat banki 300 dan ortiq turli operatsiya va xizmatlar ko‘rsatishi ta’kidlanayapti. Banklar mijozlarga to‘la xajmda xizmat ko‘rsatishayapti: soliqlarni hisoblash va to‘lash, lizing va faktoring xizmatlari, mijozlar kontragentlarining to‘lov qobiliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar, aksiya va boshqa qimmatbaho qog‘ozlar emissiyasida ko‘mak berish, investitsiyalash sohasida mijozlarga maslahatlar berish va h.k.

Moliya – bank xizmatlari bozorida raqobatli kurashda bank bo‘lmagan moliya institutlari ham qatnashishadi. Agar jahon tajribasiga nazar tashlansa, shuni payqash mumkinki, AQShda bank bo‘lmagan muassasalar an’anaviy bank xizmatlari bozorida faol raqobat olib borishadi – ular hozir pul hisob-kitoblarini o‘tkazishadi, firmalarni

qisqa muddatli kreditlash ishlari, kredit kartochkalari orqali operatsiyalar va hokazolarni amalga oshirishadi. Bizning respublikamizda barcha hohlovchilarga ko'char mulk garovi sharti bilan kreditni tez olishni taklif qilayotgan lombardlar, brokerlik kompaniyalari kabi moliyaviy vositachilar faol ish olib borishayapti, ular qimmatbaho qog'ozlar bozorida tijorat banklarini ancha siqib quyishdi. Bular va shunga uxshash boshqa jihatlar shuni ko'rsatmokdaki, banklar moliya-bank faoliyatining mahsuloti sifatida xizmatlarning imkon qadar keng kulamini taklif eta olishlari kerak.

Adabiyotlar tahlili

F. Kotler bir tomon (bizning sharoiti mizda bank boshqa tomon (bank mijozlari)ga taklif kiladigan har qanday tadbir yoki ne'mat xizmat hisoblanishini ta'kidlagan. Moliya-bank xizmatlari faoliyat sifatida ular tomonidan bajariladigan ayrim tadbirlarni mijoz manfaati va foydasi uchun bajarishdir. Bir vaqtning o'zida, moliya-bank xizmatlari moliya-bank muassasalarining iktisoslashgan tovari bo'lib, har qanday tijorat korxonasi sifatida u uni amalga oshirishning maksimal hajmiga erishishga intiladi. Tijorat banklari va moliyaviy vositachilarning alohida guruhlari o'rtasidagi raqobat kuchayishi bilan biz moliya-bank xizmatlari tizimini rivojlantirishni maqsadga yunaltirilgan, aniq mo'ljalli faoliyat sifatida rivojlantirish to'g'risidagi masalani ko'tarish joizdir.

L.Koxning fikriga ko'ra, " ... bank innovatsiyalari – bevosita foydalanuvchilar uchun ishlab chiqilgan va mijozlarning o'zlari tomonidan qo'llaniladigan, avvalgi texnologik innovatsiyalarga nisbatan takomillashtirilgan, bank jarayonining bir qismi bo'lgan zamonaviy infokommunikatsiya texnologiyalariga o'tkazilgan innovatsiyalardir" [2].

O.Melikov tomonidan bank sohasida zamonaviy raqamli axborot texnologiyalari va ularning dasturiy ta'minotlaridan foydalanish nafaqat bank xizmatlari bozorida raqobat ustunligini beradi, balki, ma'muriy xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdordigini oshirish, ortiqcha vaqt sarfini kamaytirish kabi ijobiy ta'sirlari ham mavjudligi qayd etib o'tilgan [3].

A.Xodjimamedov esa "bank innovatsiyalari" tushunchasining mohiyatini moliyaviy texnologiyalarni joriy etish va zamonaviy bank mahsulotlarini yaratish sharoitida bank faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-institusional shakllarini o'zgartiruvchi innovation jarayon sifatida izohlaydi [4].

Umuman olganda, raqobatbardosh bozor iqtisodiyotini joriy etish va moliya sohasida yangi texnologiyalardan faol foydalanish doirasida tijorat banklarining biznes jarayonlari tubdan o'zgarib bormoqda. Hozirgi vaqtda fintech kompaniyalari va banklar o'z faoliyatlarida turli fan-texnika yutuqlarini qo'llashga harakat qilmoqdalar.

Ixtisoslashgan adabiyot, tijorat banklarining reklama yunalishlarida, kupincha, «bank xizmatlari kompleksi» atamasini uchratish mumkin, lekin kompleks deganda barcha bank xizmatlarining bir butunlikni, bank operatsiyalari jamlanmasini tashkil qiluvchi to'plam tushuniladi, bank xizmatlari tizimi deganda esa biz nafakat oddiy tuplamni, balki ko'p elementlar, xususan, ularning uzaro munosabati va aloqalarini

tushunamiz va shu bilan birgalikda, bular kandaydir butunlik, yagonalikni anglatadi. Ya'ni, «kompleks» atamasi bank xizmatlarining oddiy ruyxatini ko'zda tutadi va aksariyat holarda bank mijozlari bulmagan tashqi foydalanuvchilar uchun reklama maksadlarida ishlatiladi, «tizim» atamasi kattaroq hajmdagi tushuncha bo'lib, banklar va ularning mijozlari o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqola nazariy manbalarni tahlil qilish, qiyosiy va statistik tahlil, mantiqiy umumlashtirish hamda empirik kuzatish usullariga asoslanadi. Xususan, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari o'rganildi, O'zbekiston tijorat banklari faoliyati rivojlangan mamlakatlar banklari tajribasi bilan taqqoslandi, Markaziy bank va tijorat banklari statistik ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar asosida amaliyot tahlil qilinib, innovation bank xizmatlarining samaradorligini baholash va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar

Innovation bank xizmatlari tizimini rivojlantirish uchun ko'rsatilayotgan xizmatlarni kengaytirishga e'tibor qaratish va umumay, aniq guruhdagi mijozlarga mo'ljallangan manzilli xizmatlarni kengaytirish kerak. Xizmatlarni kengaytirish, birinchi navbatda, mavjud mijozlarga qaratilishi kerak, chunki operatsiyaning bir turini amalga oshirish uchun moliya-bank muassasalariga murojaat qilayotgan kishilar va firmalar potensial mijozlar hisoblanishadi. Misol uchun, agar mijoz bankdan yul cheklari yoki xorijiy valyuta sotib olsa, unga xorijiy safar paytida baxtsiz xodisadan sugurtalanishni taklif qilish mumkin. M.Do'ni aytganidek, ifodalaydigan bulsak, bank moliya-bank mahsulotlarining butun tuplamini bitta peshtaxtadan sotishi kerak.

Bugungi kunda Uzbekistan Respublikasining tijorat banklari o'z mijozlari uchun 100 turdan ortiq operatsiya va xizmatlarni taklif qilishadi. Agar banklar o'rtasida taqqoslash o'tkazilsa, shuni ilgash mumkinki, operatsiya va xizmatlarning eng ko'pini respublika banklari ko'rsatishadi. Tijorat banklari individual bitim loyihalarini ishlab chiqishadi, ular o'z mijozlarining manfaatlarini sudda himoya qilish, mijozlar buyurtmasi asosida turli bozorlarning marketingini o'tkazishga tayyor, xorijda biznesni rivojlantirish bo'yicha maslahatlar berishadi, kichik biznes korxonalarining ta'sis hujjatlarini ishlab chiqishda qatnashishadi, tadbirkorlikning huquqiy asoslarini o'rgatishadi. Afsuski, mahalliy xususiyatdagi banklar birmuncha kam sonli operatsiyalarni amalga oshirishadi. Lekin shu bilan bir vaqtda, respublika banklarining hududlardagi vakolatxona va filiallari bosh banklari nomidan yanada tor xizmatlarni ko'rsatishadi. Agar ularning mijozi filial bajarish huquqiga ega bulmagan xizmatga muhtoj bulsa, ularni bosh bank ko'rsatadi. Shunday qilib, mijozlar banklar ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha xizmatlarni olisholmaydi va aytish mumkinki, alohida hududlarda xizmat va operatsiyalarning real soni ancha kam hamda filiallarning operatsiyalarini kengaytirish va ular menejerlarining rolini kuchaytirish ehtiyoji paydo bo'lmoqda.

Bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish tizimni kengaytirish degani emas, bu erda u faqat qo'llab-quvvatlanadi. Tizimning paydo bo'lishini quyidagicha tasavvur qilish mumkin: kichik firmaga xizmat ko'rsatuvchi bank boshlang'ich ssuda berishi, kechiktirib to'lash sharti bilan iste'mol tovarlarini kreditga olishi, hujjatlarni buxgalterlik rasmiylashtiruvini, alohida moliyaviy xizmat qilish xizmatlarini ko'rsatishi, ya'ni firmaning rivojlanishi, uning quvvatlarini oshirishga, mos ravishda endi biznes uchun xarakterli yangi ehtiyojlar (lizing operatsiyalari, o'rta muddatli kreditlash)ning paydo bulishiga imkon yaratishi mumkin, buning natijasida esa bank uzi uchun yirik mijozlarni kashf etishi mumkin. Manzilli xizmatlar ko'rsatishning maqsadga muvofiqligi ham ana shunda. Shunday qilib, o'z mijozlarining oyoqqa turishi va rivojlanishiga yordam bergan bank ular bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar hajmini kengaytiradi va tegishli daromadlarini oshiradi. Mamlakatimiz banklarining ayrimlari o'z tarif siyosatida alohida yirik mijozlar uchun xizmat tariflarning maxsus turlarini hisobga olishgan.

Shuni inobatga olish kerakki, firma va kompaniyalarning direktor va xizmatchilari xuddi yakka tartibdagi tadbirkorlar singari moliyaviy siyosatida alohida yirik mijozlar uchun xizmat va tariflarning maxsus turlarini hisobga olishgan.

Shuni aytish lozimki, firma va kompaniyalarning direktor va xizmatchilari, xuddi yakka tartibdagi tadbirkorlar kabi, bank xizmatlari va boshqa moliya xizmatlarining depozit hisobraqamlarini ochish, pul hisob-kitoblari, sug'urtalash, pensiya xizmati kabi turlariga muxtoj. Bu erda ham banklarda yakka mijozlarning kup sonli sinfi kurinishidagi faoliyat uqlari kurinadi.

Rivojlangan davlatlarda mayda mijozlar uchun anchadan buyon raqobat boradi, u avval faqat yirik firmalar va badavlat mijozlarga xizmat ko'rsatishni ma'qul kuradigan «ulgurji» banklarning kichik biznes va past tabaqalarning jamg'armalarini jalb qiladigan «chakana» banklarga aylanishida ko'rinadi. Bugungi kunga kelib amaliyotda rivojlangan davlatlarning banklari jismoniy (xususiy) va yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatishdagi tafovutlar sezilmas bo'lib bormoqda. Misol uchun, xususiy shaxs tadbirkor bo'lishi yoki keyinchalik shundayga aylanishi, o'z ishini ochishi mumkin, shuning uchun bank xizmatlarini mijozlar turiga qarab ajratish qiyin. Moliya-bank xizmatining markazida odam, uning shaxsiy sifatleri va moliyaviy imkoniyatlari turishi lozim.

O'zbekiston banklari esa yakka mijozlarga xizmat ko'rsatish tajribasini kengaytirishning imkoniyatlarini munosib baholashmayapti va bu sohani qaltis, yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatishga qaraganda kam daromadli, deb hisoblashayapti va unga birlamchi munosabat bildirishmayapti.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida O'zbekiston Respublikasi bank tizimining transformatsiyasi, xususan, raqamli banking muammolari va uni rivojlantirish yo'nalishlarini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Raqamli banking xizmatlari o'ziga xos qator xususiyatlarga ega bo'lib, ular O'zbekiston bank tizimi uchun quyidagicha ifodalanadi:

1. Naqdsiz hisob-kitoblar ustuvorligi – hozirgi paytda pul massasi aylanmasining asosiy shakli naqdsiz to'lovlar orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa bank

tizimi samaradorligini oshirish uchun mijozlar bilan masofaviy va elektron aloqa kanallarini maksimal darajada kengaytirishni talab qiladi.

2. Autentifikatsiya va xavfsizlikni ta'minlash – raqamli bank xizmatlarida mijozlarni aniqlash va ularning ma'lumotlarini himoya qilish maqsadida fizik elektron qurilmalar, biometrik parollar va kombinatsiyalashgan autentifikatsiya usullari keng joriy etilmoqda. Bu xavfsizlik choralari modernizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Big Data va markazlashgan axborot tizimi – mamlakat miqyosida raqamli ma'lumotlar bazasi arxitekturasi yaratilmoqda. Bu tizim “Big Data” texnologiyalaridan foydalangan holda ma'lumotlarni boshqarishni soddalashtirish va markazlashtirish imkonini beradi.

4. Bank faoliyatini avtomatlashtirish – raqamli texnologiyalarni keng joriy etilishi natijasida banklarning ichki operatsion bo'linmalari avtomatlashtirilib, inson omiliga bo'lgan ehtiyoj kamaymoqda. Bu esa boshqa bo'limlarga bo'lgan ish yuklamasini pasaytirish bilan birga, xizmat ko'rsatish tezligi va sifatini oshirish imkonini bermoqda.

5. Mijozlar bilan raqamli muloqot kanallari – bank va mijoz o'rtasidagi o'zaro aloqalarda ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar, veb-dasturlar, chat-botlar va videoaloqa vositalari orqali xizmat ko'rsatish yildan-yilga ommalashmoqda. Bu esa foydalanuvchi tajribasini sezilarli darajada yaxshilamoqda.

Har bir bank o'z faoliyatini zamonaviy texnologiyalar va yangi moliyaviy xizmatlar asosida qayta shakllantirib, mijozlar talablarini tezkor qondirishga intilishi lozim. Shuningdek, har bir davlat bank bozoridagi o'zgarishlarni vaqtida va samarali tarzda sezib, tegishli normativ-huquqiy va infratuzilma choralari bilan qo'llab-quvvatlashi, innovatsiyalarni rag'batlantirishi muhimdir. Bu esa milliy moliya tizimining raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotning raqamli rivojlanishiga xizmat qilishi uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Kelgusida bank tizimini yanada rivojlantirish uchun raqamli bank sohasidagi innovatsiyalar, ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilish va masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarini takomillashtirish zarur.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasida to'lov tizimini rivojlantirish ikki bosqichga ajratilgan. Birinchi bosqich 2020 yilgacha davom etgan bo'lib, unda bank xizmatlarini ko'rsatuvchi ilovalar yaratish, mijozlarni yagona to'lov platformasiga ulash, ushbu platformada mijozlarni qo'llab-quvvatlash servislarini tashkil etish, kadrider va mobil POS terminallarni to'lov tizimiga joriy qilish, R2R hisob-kitoblarni yuritish kabi vazifalar belgilangan.

Ikkinchi bosqich esa 2025 yilgacha bo'lib, unda tovarlarni hisobga olish va sotish portali, tranzaksiyalar boshqaruvi tizimi, mobil-banking kriptografik identifikatorlari, turli xizmatlarni banklarning raqamli platformalariga integratsiyalash, B2B va B2C tezkor o'tkazmalarini joriy qilish, ochiq dasturlarni dasturlash interfeysi (API), bank biznesida masofadan identifikatsiya qilish, shuningdek, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan o'rganish texnologiyalari asosida bank mahsulotlari va

xizmatlarini taqdim etish imkoniyatlari yaratish ko'zda tutilgan..

Bularning barchasi hozirgi davrda mamlakatimizda innovatsion texnologiyalardan foydalanuvchilar bilan bir qatorda bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari (bank-mijoz, internet banking, mobilbanking, sms-banking)dan foydalanuvchilar soni ham ortib borishi bilan bog'liq ishlarni davlat tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanayotganidan darak bermoqda. Ammo boshlangan islohotlarni, ya'ni yangi axborot kommunikatsion-texnologiyalarni barcha sohalarda bo'lgani kabi bank tizimida ham keng joriy etish ishlarini izchil davom ettirish zarurdir.

Shubhasiz, iqtisodiyotning ahvoli, mehnat xarajatlarining yuqori darajaliligi va hattoki, kerakli tajribaning yo'qligi (misol uchun, kreditlashda) kabi ob'ektiv sabablar bor, lekin iqtisodiyotning barkarorlashuvi, inflyasiya uzgarishlarini engib o'tish, bu sohada zarur tajriba orttirishdan keyin banklar asta-sekin aholiga xizmat qilish tajribasini kengaytirishlari mumkin. Bozor o'zgarishlari boshlanishi barobarida bank xizmatlari sohasi muammolarining barham topganligi tugrisida gapirish uchun yurtimiz banklarining rivojlanish bosqichi hali ancha torlik qiladi. Boz ustiga, bank faoliyatini nazariy o'rganishlar, huquqiy asoslarni takomillashtirish bilan uyg'un holda, to'g'ri amaliyot mijozlarga bank xizmatlari ko'rsatishning yanada rivojlanishiga yordam berishiga ishonchimiz komil.

Moliya-bank xizmatlarini joriy etish va boshqarish, narx hosil bo'lish siyosatini amalga oshirish, reklama strategiyasini ishlab chiqish va marketingni kuchaytirishga doir moliya-bank xizmatlarining o'zni va ahamiyati birmuncha kengroq ifoda etilgan. Moliya-bank xizmatlarini joriy etish va boshqarish, narx hosil bo'lishi siyosatini amalga oshirish, reklama strategiyasini ishlab chiqish va marketingni kuchaytirishga doir moliya-bank xizmatlarining hayotiy siklini tasvirlash mumkin.

Hozirgi kunda yurtimiz iqtisodiyoti moliya institutlari rivojlanishining katta sur'atlari bilan xarakterlanadi. Bank sektori va ularning xizmatlari, ayniqsa, katta sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Zamonaviy tijorat banklarida so'nggi yillarda raqobatli ustunliklarga erishish uchun bank faoliyatining alohida segmentlarida innovatsiyalarni joriy qila boshlashdi, jumladan:

- 1) mijozlarga xizmat ko'rsatish sohasida;
- 2) xizmatlar ko'rsatish sohasida;
- 3) tarkib va tashqi ko'rinishida;
- 4) faoliyatni boshqarish sohasida;

Banklarda innovatsion xizmatlarni ishlab chiqish va joriy qilish, avvalo, bank tuzilmalari orasida raqobat kuchayishiga ta'sir qiladi. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, xorijiy banklarning jadal kirib kelishi jarayonida yurtimiz moliya bozorida vaziyatning o'zgarishiga sabab bo'lishi, afsuski, ularning foydasiga kuzatilishi mumkin. Agar rivojlangan davlatlarning universal xizmatlar paketini taklif qiladigan banklari kelsa yoki mavjud xorijiy banklar o'z biznesi ko'lamini jadal kengaytirsalar, u holda yurtimiz banklari g'arb banklariga munosib raqobat ko'rsatishi uchun bank xizmatlarining sifatini oshirishlari va spektrini jahon andozalari darajasida kengaytirishlariga to'g'ri keladi. Bunday sharoitda tijorat banklari tomonidan ingovatsion xizmatlarni qidirish va

joriy qilish alohida dolzarblik kasb etadi. Shu tariqa aytib o‘tilganlarni inobatga olgan holda, biz moliya institutlari xizmatlarining tizimlashgan holdagi tahlilini o‘tkazishni maqsadga muvofiq, deb bilamiz. Buning uchun qondiriladigan talablar xususiyati bo‘yicha va mavjud hamda bo‘lajak o‘svuchan ehtiyojlarni qondirish bo‘yicha va mavjud hamda bo‘lajak o‘svuchan ehtiyojlarni qondirish bo‘yicha xizmatlarni taklif qilamiz. Birinchilariga quyidagilarni kiritishni: MDH davlatlari bo‘yicha tezkor elektron pul jo‘natishlarni; halqaro tizim doirasida pul jo‘natishlar bo‘yicha elektron xizmatlarni; internet texnologiyalaridan foydalangan holda naqd pulni tezkor to‘plash va ko‘chirish bo‘yicha elektron xizmatlarni; mikroprosessorli kartochkalarni; forward xizmatlarni; fyuchers xizmatlar; opsiya bitimlar bo‘yicha xizmatlar; forfeiting xizmatlari; loyihali kreditlash. Ikkinchi guruhga esa quyidagilarni kiritish mumkin: telebanking; internet-banking; uy bankingi; korporativ moliyalash; fidusiar xizmatlar.

Xulosa va takliflar

Xorij tajribasining guvohlik berishicha, mijozlarga xizmat ko‘rsatishning yangi imkoniyatlari – innovasion xizmatlar – internet-banking va uy bankingi (homebanking) mavjud. Yurtimiz tajribasida xizmatlarning ushbu shakllari bilan Xalq banki shug‘ullanishi mumkin edi, bugungi kunda banklarimiz hozircha internet banking bozorini o‘tkazish strategiyasida ma‘lum tajribasiga ega emas, shuning o‘zi ham mohiyatan internet-bankingning keng rivojlanishiga imkon bermaydi. Internet orqali xizmat ko‘rsatishga asoslangan xizmatlar sohasi esa hali rivojlanmagan. Uy bankingi bozori esa talab yo‘qligi tufayli hal bo‘lmay qolmoqda va bunda banklar innovasion xizmatning faol targ‘iboti bilan shug‘ullanmasdan, hozircha passiv holatni egallashgan. Lekin, adolat yuzasidan shuni ta’kidlash kerakki, internet xizmatlarni ishlab chiqish va kiritishda banklar to‘qnash kelayotgan qator muammolar mavjud. Internet-banking xizmatlarining rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan sabablar aholining ushbu bank tizimiga ishonchining yo‘qligi, internet orqali tranzaksiyalarning etarlicha xavfsiz emasligi, aholining kompyuterlashish darajasining pastligi va internetdan foydalanishning keng tarqalmaganligi bo‘lishi mumkin. Lekin banklarning o‘zida muammoning mavjudligi, ya’ni ularning ko‘pchiligi, hatto internet-banking uskunalarini o‘rnatgandan keyin ham innovasion xizmatni rivojlantira ololmasligi, natijada, loyihalarning maxsus biznes-menejerlariga internet-servislarni berkitib bo‘lmayapti. Bizning fikrimizcha, bunday loyihalarni axborot texnologiyalari xizmati xodimlari nazorat qilishini yo‘lga qo‘yish mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda qo‘l keladi.

Innovation bank xizmatlarining rivojlanishi ko‘p jihatdan ushbu xizmatlar uchun narx hosil bo‘lishi usuliga bog‘liq, bundan tashqari, ularning ixtisoslashuvi jarayonida bank faoliyatiga o‘rnini ham hisobda tutish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Мамадияров, З. Т. (2021). Банкларни трансформация қилиш шароитида масофавий банк хизматлари билан боғлиқ рискларни бошқариш. Экономика и финансы (Ўзбекистан), (5 (141)), 12-21.

2. Кох, Л.В. (2010). Принципы и механизмы повышения эффективности банковской деятельности на основе использования инноваций: автореферат дисс... д-ра экон. наук. – Иваново. – С.21.
3. Меликов О.М. (2021). Рақамли банк технологиялари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари ҳамда улардан самарали фойдаланиш йўллари. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, 2021.
4. Ходжимамедов, А. (2023). Рақамли трансформация шароитида инновацион банк хизматларидан фойдаланиш йўллари. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 11(1), 370 б.
5. Ортиков О. А. Ўзбекистон Республикаси банк хизматлари бозорида рақобатни баҳолаш методологиясини такомиллаштириш масалалари //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2024. – Т. 4. – №. 06. – С. 244-263.
6. Мамадияров З. Т. Банкларни трансформация қилиш шароитида масофавий банк хизматлари билан боғлиқ рискларни бошқариш //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2021. – №. 5 (141). – С. 12-21.
7. Sharipov T. Масофавий банк хизматлари самарадорлигини оширишга таъсир этувчи омилларнинг импульс реакцияси //Economics and Innovative Technologies. – 2024. – Т. 12. – №. 1. – С. 154-164.